

MA'NAVIY MEROSDA VATANPARVARLIK TARBIYASI MASALALARI

Mamadalimov Azimjon Xasanboyevich

FarDU Harbiy Ta'lim Fakulteti, dotsent Maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi

Annotntsiya: *Ushbu maqolada xalqimizning ma'naviy me'rosida vatanparvarlik tarbiyasi masalalari, xususan harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish yo'llari, shuningdek, ota-bobolarimizning jasoratlari misolida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, qaxramonlik, Vatan, ma'naviyat, me'ros, muqaddas tamiri, millat, milliy ruh, yov, erk, kuch quvvat va xok.*

Annotatsiya: *V dannyoy state raskriti puti razvitiya patrioticheskogo vospitaniyo voennoslujashix na osnovanii duxovnogo naslediya, v chastnosti na osnovanii geroizma nashix predkov.*

Klyuchevie slova: *patriotizm, geroizm, Rodina, duxovnost, svyashennaya zemlya, naslediya, natsiya, natsionalnaya gordost, vrag, svoboda, sila i prax. "*

Jamiyat rivojlangani sari katta ahamiyat kasb etadigan ma'naviy qadriyatlardan biri vatanparvarlik tuyg'usidir. Vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdirga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlarini yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqiga bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin oladigan, faoliyatiga ta'sir etadi.

Vatanparvarlik - bu Vatanimiz xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash, hamda uni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish, uning haqiqiy jonkuyari bo'lishidir.

Vatanparvarlik - bu har qanday dushmandan o'z yurtini himoya etish, millat, xalq, Vatan ozodligi, el-yurt tinchligi yo'lida kerak bo'lsa jonini ham fido etishdir.

Vatanparvarlik jahondagi barcha xalqlarning donishmand va solih farzandlariga bo'lgan tuyg'udir. Ma'lumki, har bir davr va avlod hayotda o'ziga xos ma'naviy meros yaratadi. Ma'naviy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday bo'ladi. Ma'naviy meros muallifi xalq ommasi hisoblanadi¹.

1 Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. — Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. — 72 b.

Mustaqillik tufayli xalqimiz o'z tarixini va hayot merosini yangidan tiklamoqda. Hayotimizning har bir davri qaytadan ko'rib chiqilmoqda, jadidchilik harakatining asl ma'nosi ochib berilmoqda. Cho'lpon, Fitrat, Botu, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy va boshqalarning g'oyalari xalqimizga yetkazilmoqda.

Vatanparvarlik tarbiyasi mustaqil O'zbekiston oldida turgan zarur vazifalardan biridir. Chunki sobiq sho'ro tizimi paytida bu haqida o'y1ash ham, amal da bajarish ham mumkin emas edi. O'z kelajagini yaratayotgan O'zbekiston o'z vatanparvarlarini, o'z himoyachilarini

tarbiyalab yetishtirish, o'z hududlarining daxlsizligini ta'minlashi lozim. Harbiylarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turli vositalardan foydalanishi lozim.

Ayniqsa, xalqimiz tarixi, bosib o'tgan yo'li, undagi tarixiy voqealar na'muna bo'la oladi.

Inson hamisha ikki muqaddas tuyg'u bilan yashaydi va ulug'lanadi: Vatan va Millat. Ana shu ikki tuyg'usi bo'lmagan odamni biz hech qachon komil inson deya olmaymiz. Qolgan barcha ezguliklar ana shu ikki noyob fazilatning bo'laklaridir. Vatanni, odatda, onaga qiyoslaydilar ona - muqaddasdir, demak Vatan ham sajdagoh kabi muqaddas.

Vatan bu ota-bobolarimizning hoki, tuprog'i yotgan makoni. O'zga yurtda

Vatan orzusi bilan yashayotgan musofir ham o'z eli, o'z yurti tuprog'iga qo'shinishni istaydi va bir umr shu orzu bilan yashaydi.

Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Vatan tuyg'usi, Vatan tushunchasi biz uchun sajdagohday muqaddas, pok va ulug' bo'lmog'i kerak. Biz ona O'zbekiston sha'nu sharafini qanday himoya etishni, ota-bobolarimizdan meros

qolib olishimiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmog'imiz darkor. Ulug' ajdodlarimizdan muqaddas meros bo'lib, kelayotgan Vatanga muhabbat tuyg'usi, farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam e'tiqodga, chinakam aqidaga aylansin"².

Darhaqiqat, ona-Vatan ozodligi va xurligini har narsadan a'lo bilgan mardu

maydon kishilar har qanday mushkil holatlarga, murakkab, jiddiy vaziyatlarga duch

2Mirziyoyev Sh.M. Qurolli Kuchlami rivojlantirish borasidagi ishlarni sarhisob qilish,yani

/O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning xavfsizlik kengashining navbatdagi yig'ilishidagi ma'ruzasi'

kelmasinlar, ular oxirgi tomchi qonlari qolguncha o'z ahdu paymonlariga, e'tiqodlariga sodiq qola biladilar.

Armiyaning kuch-qudrati, sog'lomligi, yengilmasligi askarlarning e'tiqodi,

jismoniy salomatligi va harbiy vatanparvarligi bilan bog'liqdir.

Amir Temur armiya tuzishda masalaning bu tomoniga katta e'tibor qaratgan: "Cherik (qo'shin, harbiy tuzilma) tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim:

Birmchidan - yigitning kuch-quvvatiga; Ikkinchidan - qilichning o'ynata olishiga;

Uchinchidan - aql-zakovatiyu kamolotiga. Shu uch fazilat jamuljam bo'lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negakim, kuch-qudratli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladigan kishi raqibini mag'lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokni ishga solib, mushkilini bartaraf etmog'i mumkin"³.

Ma'lumki, har bir davr va avlod o'ziga xos ma'naviy meros yaratadi. Ma'naviy meros - bu avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy, hamda ma'naviy boyliklar majmuidir.

Mustaqillik tufayli xalqimiz o'z tarixini va ma'naviy merosini yangidan tiklamoqda. Ma'naviy merosimiz Al-Buxoriy At-Termiziy, Axmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni,

Baxovuddin Naqshband kabi mutafakkirlar ta'limotlari, yaqin vaqtlargacha taqiqlangan bir qancha urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'ana1ar, milliy marosimizning tiklanishi hisobiga boyib bormoqda.

Hozirda harbiy xizmatchilarga milliy ma'naviyatimizdan, dunyoviy fanlardan puxta bilim berishda va milliy mafkuradagi asosiy g'oya1arni singdirishda oliy harbiy ta'limda alohida o'rin tutadi.

Bugungi kunda milliy g'oyani harbiy xizmatchilarning ongiga yetkazishni asosiy omillari mavjud:

- Vatan va millat oldidagi fuqarolik burchi, hamda vazifalarini bajarish;
- harbiy xizmatchilarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish;

3 Temur tuzuklari. — T.: Sharq, 2018. - 44 b.

- ularda ma'naviy merosimizga ehtirom ruhini tarbiyalash va Vatanga sodiqlikni shakllantirish;

- harbiy xizmatchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

- ularda axloqiy va estetik tarbiyani shakllantirish;

- milliy tilga hurmat-ehtirom bir qatorda boshqa tillarni o'rganishning ahamiyatini tushuntirish.

Xulosa qilib aytganda harbiy xizmatchilar - Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshiramiz. Buning uchun ular zimmalariga yuklatilayotgan eng murakkab va ma'suliyat1i vazifani butun mohiyati bilan chuqur anglashlari, unga o'zlarini hissalarini qo'shishlari lozim.

Shuning uchun Qurolli Kuchlarda xizmat o'tayotgan har bir harbiy xizmatchi yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart. Vatanparvarlik yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Vatanparvarlik komillikni eng yorqin ko'rinishidir. Shuning uchun ham "Vatanni sevmoq — imondandur", deb aytiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, Sh.M. Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasidagi ishlarni sarhisob qilish, yangi vazifalar belgilash /O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining navbatdagi yig'i1ishidagi ma'ruzasi.

2. Temur tuzuklari. — T.: Sharq, 2018. — 144 b.

3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. — Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. — 707 b.

4. Negmatov, B.M. O'zbekistonda harbiy ishlar tarixidan lavhalar.

—Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2010. — 76 b.

1. Мамадалимов, А. Х., Мамажонов, Р. А., Тошпулатов, А. М., & Ахунов, И. И. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВОЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ

УЧАЩИХСЯ МОЛОДЕЖИ. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(14), 255-260.

2. Мамадалимов, А. Х., Мамажонов, Р. А., Тошпулатов, А. М., & Ахунов, И. И. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВОЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ МОЛОДЕЖИ. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(14), 255-260.

3. Мамадалимов, А. Х., Мамажонов, Р. А., Тошпулатов, А. М., & Ахунов, И. И. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВОЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ МОЛОДЕЖИ. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(14), 255-260.

4. Мамадалимов, А. Х., Мамажонов, Р. А., Тошпулатов, А. М., & Ахунов, И. И. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВОЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ МОЛОДЕЖИ. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(14), 255-260.

5. Мамадалимов, А. Х., Мамажонов, Р. А., Тошпулатов, А. М., & Ахунов, И. И. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВОЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ МОЛОДЕЖИ. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(14), 255-260.

6. Мамадалимов, А. Х., Мамажонов, Р. А., Тошпулатов, А. М., & Ахунов, И. И. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВОЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ МОЛОДЕЖИ. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(14), 255-260.

7. Мамадалимов, А. Х., Мамажонов, Р. А., Тошпулатов, А. М., & Ахунов, И. И. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВОЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ МОЛОДЕЖИ. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(14), 255-260.

Negmatov B.M. O'zbekistonda harbiy ishlar tarixidan lavhalar. —Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2010. — 16 b.